

OT SO'Z TURKUMI

Boboyeva Shahnoza Mo`minovna

*Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi 28–umumta`lim maktabining
Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi*

Anotatsiya: Ushbu maqolada Morfologiya bo'limi ot so'z turkumi, otlarning yasalishi, ma'nosiga ko'ra turlari, qisqarma otlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil so'z, ot, egalik qo'shimcha, kelishik shakllari, turdosh ot, atoqli ot.

Morfologiya (yunoncha morphe — shakl va logiya) (tilshunoslikda) — 1) tilning morfologik qurilishi; 2) so'z shakllari haqidagi ta'limot. Birinchi ma'nosida ob'yektni anglatasa, ikkinchi ma'nosida tilshunoslikning shu ob'yektni o'rganuvchi bo'limini bildiradi.

Morfologiya so'z turkumlari, ularga xos grammatik ma'nolarni, har bir turkumga xos grammatik kategoriyalar, bu kategoriyalarni yuzaga keltiruvchi grammatik shakl va grammatik ma'nolar va shahrik.ni o'rganadi. Til tizimdan iborat bo'lganidek, uning Morfologiyasi ham o'ziga xos tizimni tashkil etadi. O'z navbatida, morfologik tizim ham o'ziga xos kichik tizimlardan tashkil topadi. Ulardan har birining mohiyati yoritilishi bilan, tilning Morfologiyasi yaxlit holda, tizim sifatida o'rganiladi. Har bir so'z turkumiga xos ichki tizim (tizimcha)larni shu turkumga xos morfologik kategoriyalar tashkil etadi. Morfologik kategoriyalar so'z turkumiga xos ma'lum bir hodisaga oid umumiy va xususiy ma'nolar va bu ma'nolarni ifodalovchi so'z shakllari birligidan iborat bo'ladi. Ana shu so'z shakllari va ularga xos umumiy va xususiy ma'nolar yoritilishi bilan muayyan morfologik kategoriyalarning mohiyati belgilanadi. Boshqacha aytganda, morfologik tizim ichidagi ichki tizimlardan birining mohiyati belgilanadi.

Morfologiya so'z turkumlari va ularning grammatik shakllari bo'yicha bahs yuritadi.

Morfologiya bilan sintaksis o'rtasida ham chambarchas bog'liqlik mavjud. Morfologiyadagi har bir so'z shakli gap tarkibida ma'lum sintaktik vazifa bajaradi, ma'lum gap bo'lagi vazifasida keladi. Grammatik shakllar gap tarkibidagi bo'laklarni bir-biriga bog'lovchi yoki gap bo'lagiga qo'shimcha ma'no yuklovchi vosita vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, tilshunoslikning leksikologiya, morfologiya va sintaksis bo'limlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud.

O'rganish uchun olingan turli narsa, voqea-hodisalar yig'indisi to'plam deyiladi. To'plamni o'xshash va farqli belgilar asosida ichki guruhlariga bo'lish tasnif hisoblanadi.

So'zlarning so'rog'i va qanday umumlashgan ma'no ifodalashiga ko'ra guruhlariga bo'linishi so'z turkumlari hisoblanadi.

Eslatma: So'zlarni turkumlarga ajratishda so'zlarning leksik ma'nosi ustiga qo'yilgan umumiy grammatik (predmet, belgi-xususiyat, harakat-holat kabi) ma'no asosiy tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi.

So'z turkumlari ma'no va vazifasiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Mustaqil so'zlar. 2. Yordamchi so'zlar. 3. Oraliqdagi so'zlar.

Ma'lum bir so'roqqa javob bo'lib, atash va umumiy grammatik ma'noga (masalan, predmet, belgi, miqdor, harakat-holat kabi) ega bo'lgan, biror gap bo'lagi vazifasida keladigan so'zlar mustaqil so'zlar sanaladi. Ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravishlar mustaqil so'zlar sanaladi.

Ma'lum bir so'roqqa javob bermaydigan, atash ma'nosiga ega bo'lmagan, faqat grammatik ma'no ifodalovchi, lekin o'zidan oldin kelgan so'zga grammatik shakl sifatida qo'shib, u bilan bir lug'aviy urg'u ostida birlashmaydigan so'zlarga yordamchi so'zlar deyiladi. Ularga ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar kiradi.

Mustaqil so'zlarga ham, yordamchi so'zlarga ham kirmaydigan, ularning har ikkisi xos belgini o'zida ma'lum darajada aks ettiradigan so'zlar oraliqdagi so'zlar hisoblanadi. Bunday so'zlarga undov so'zlar, modal so'zlar va taqlid so'zlar kiradi.

Shaxs, narsa ma'nolarini, shuningdek, joy nomlarini bildirib, kim? nima? qayer? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar ot deyiladi.

Kim? so'rog'i shaxsni bildiruvchi so'zlarga, nima? so'rog'i narsa-buyumni bildiruvchi so'zlarga, qayer? so'rog'i joy nomini bildiruvchi so'zlarga beriladi. Shunga ko'ra otlar shaxs otlari, narsa-buyum otlari, o'rin-joy otlariga bo'linadi.

Bir turdagi shaxs, predmet, hodisa, o'rin-joydan birini yoki ularning umumiy nomini ifodalashiga ko'ra otlar 2 ga bo'linadi: turdosh ot va atoqli ot.

Ot — mustaqil so'z turkumlaridan biri. U boshqa turkumlardan bir necha belgi — xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular quyidagilardan iborat: 1) ot yasalish xususiyatiga ega: ishchi, suhbatdosh, paxtakor, bog'bon, oshpaz, Mirzacho'l; b) son-miqdorni bildirish xususiyatiga ega: bola — bolalar, daftar—daftarlar; v) egalik ko'rsatkichiga ega: otam, otang, otasi — otamiz, otangiz, otalari; g) kelishik shakllari bilan o'zgaradi; maktab, maktabning, maktabni, maktabga, maktabda, maktabdan; d) gapda barcha gap bo'laklari vazifasida keladi. Aniq, predmetlarni yoki predmet sifatida tasavvur qilinadigan tushunchalarni ifodalaydigan Otlar ma'nosiga ko'ra, atoqli va turdosh Otlarga bo'linadi. Bir xildagi predmet yoki hodisaning birini ajratib ko'rsatuvchi Otlar atoqli Otlar sanaladi: Rustam, Olimjon, Jomboy, Mars, Venera, Boychibor kabilar. Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomi turdosh Otlardir: gul, daraxt, qalam, daftar

kabi. Ot turkumi 3 xil grammatik kategoriyaga ega: 1) son kategoriyasi; 2) egalik kategoriyasi; 3) kelishik kategoriyasi. Otning funksional shakllari mavjud bo'lib, ular ma'lum bir qo'shimcha grammatik ma'no ifodalash, Otlarning kategorial shakllariga xos bo'lmagan biror sintaktik vazifasiga moslashish uchun xizmat qiladi. Otga xos funksional shaklning yasashga ko'ra 3 tipi mavjud: 1) sintetik shakl; 2) analitik shakl; 3) juft va takror shakl. Otning sintetik funksional shakllari o'z ma'no va vazifalariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: a) kichraytish shakli (baliqcha, yigitcha, kelinchak); b) erkalash shakli (opajon, bo'taloq, qizaloq); v) hurmat shakli (onajon, opajon, dadamlar, akamlar, oyimlar); g) qarashlilik shakli (akamniki, maktabniki); d) o'rin belgisi (osmondagi, qirdagi, qishloqdagi); ye) chegara shakli (uygacha, toqqacha, boqqacha); j) o'xshatish shakli (Ozodday — Ozod kabi, sizlarday — sizlar singari). Otning analitik shakli ko'makchi yordamida xrsil bo'ladi: qalam bilan (da), otam uchun (-ga) kabi. Otning juft shakli umumlashtirish, jamlik ma'nolarini ifodalaydi: qozon-tovoq, qovun-tarvuz. Otning takroriy shakli ko'plik ma'no-sini ifodalaydi: qatra-qatra yosh, om-bor-ombor g'alla. Otlarning yasalishi natijasida yasama Otlar paydo bo'ladi. Yasama Otlar affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya yo'llari bilan yasaladi. Affiksatsiya ot yasashdagi eng mahsuldor usul bo'lib, uning yordamida shaxe otlari (bo'yoqchi, ishchi, maktabdosh, zargar, sholikor, saroybon, chorvador, tilshunos, etikdo'z, oshpaz, aravakash, kaptarboz, kitobxon); narsa, qurol otlari (och-qich, o'sma, to'plam, kurak, qirindi, ekin, kekirdak, suyunchi, tuzdon); o'rin, joy otlari (bodomzor, O'zbekiston, qarorgoh, ishxona, o'tloq, Paxtaobod); mavhum ma'noli otlar (yaxshilik, paxtachilik, ishonch, yigilish, radiolashtirish, odamgarchilik). Kompozitsiya usuli bilan Ot yasashda qo'shma Otlar vujudga keladi: bilaguzuk, achchiqtosh, uchburchak, kungaboqar, olibsotar, ishlab chiqarish. Abbreviatsiya usuli bilan Ot yasalganda, qisqartma Otlar hosil qilinadi: BMT, SamDU, O'zME kabi. Otlar gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqichli aniklovchi, hol vazifalarida keladi. Ammo o'rni bilan sifatlovchi, izoxlovchi, kesim yoki atov, bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda ushbu maqolada ot so'z turkumi yasalishi, gapdagi vazifasi, atoqli va turdosh otlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Mahmudov A.Nurmonov Ona tili 5-sinf 2015 [1]
2. N.Mahmudov, A.Nurmonov Ona tili. 6-sinf 2017[2]
3. N.Mahmudov A.Nurmonov Ona tili 5-sinf 2013[3]
4. www.ziyonet.uz [4]